

**BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA ELEMENTAR
MATEMATIK TASAVVURLARNING SHAKLLANGANLIK AHAMIYATI**

Raximboyeva Muazzamxon Ximmat qizi

Mustafoyeva Mahbuba Bozorovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti maktabgacha ta'lim

yo'nalishi talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning nazariy va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, bolalarni maktabga tayyorlash jarayoni ularning aqliy rivojlanishida, xususan, matematik tasavvurlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishi, matematik fikrlash, mantiqiy tafakkur va bilish faoliyatini rivojlantirishda matematik tasavvurlar tizimining o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: elementar matematika, matematik tasavvur, mantiqiy fikrlash, son, shakl, fazo, o'lchov, vaqt, maktabga tayyorgarlik.

**THE IMPORTANCE OF FORMATION OF ELEMENTARY
MATHEMATICAL CONCEPTS IN PREPARING CHILDREN FOR
SCHOOL**

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical significance of the formation of elementary mathematical representations in the process of preparing children for school. It also highlights the importance of the process of preparing children for school in their mental development, in particular, in the formation of mathematical representations, and the role of the system of mathematical representations in the development of mathematical thinking, logical thinking and cognitive activity.

Keywords: *elementary mathematics, mathematical representation, logical thinking, number, shape, space, measurement, time, preparation for school.*

ЗНАЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ЭЛЕМЕНТАРНЫХ МАТЕМАТИЧЕСКИХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ В ПОДГОТОВКЕ ДЕТЕЙ К ШКОЛЕ

Аннотация: *В статье анализируется теоретическое и практическое значение формирования элементарных математических представлений в процессе подготовки детей к школе. Также подчеркивается значение процесса подготовки детей к школе в их умственном развитии, в частности, в формировании математических представлений, и роль системы математических представлений в развитии математического мышления, логического мышления и познавательной деятельности.*

Ключевые слова: *элементарная математика, математические представления, логическое мышление, число, фигура, пространство, измерение, время, подготовка к школе.*

Kirish. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash — bu ularning aqliy, ruhiy, ijtimoiy va jismoniy jihatdan rivojlanishini ta'minlaydigan murakkab, ammo zarur bosqichdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun matematik tasavvurlar dunyoni anglash, predmetlar orasidagi bog'liqlikni tushunish, ularni tartiblash va tahlil qilishda muhim o'rin tutadi. Bola maktabga borguniga qadar miqdor, shakl, fazo va vaqt tushunchalari asosida fikrlashni o'rganishi zarur. X.Yo.Najmiddinova esa o'zining “Matematik tasavvurlarni shakllantirish” asarida bu jarayonning psixologik-pedagogik asoslarini tahlil qilib, elementar matematik bilimlar bolaning intellektual salohiyatini rivojlantirishdagi asosiy omil ekanini alohida ta'kidlaydi.

Maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni maktabga tayyorlash jarayoni ularning aqliy rivojlanishida, xususan, matematik tasavvurlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda o'yin faoliyati eng samarali metodlardan biri bo'lib, bola uchun tabiiy, hissiy va idrokka asoslangan ta'lim muhitini yaratadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda:

-miqdor, shakl, kattalik, vaqt va fazo haqidagi ilk matematik tushunchalarni shakllantirish;

-mantiqiy fikrlash, solishtirish, guruhlash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish;

-raqamlarni idrok etish, hisoblash amallariga tayyorlash va nutq orqali matematik fikrni ifoda etish malakasini shakllantirish maqsad qilib olinadi.

O'yin orqali bola nafaqat sanash, taqqoslash, o'lchash kabi ko'nikmalarni egallaydi, balki mantiqiy fikrlash, kuzatuvchanlik, sabr-toqat va mustaqil fikr yuritish kabi sifatlarni ham rivojlantiradi.

Elementar matematik tasavvurlar deganda bolalarning miqdor, shakl, o'lcham, fazoviy joylashuv, vaqt va sanash haqidagi dastlabki tushunchalari tushuniladi. Ushbu tasavvurlar bolaning intellektual rivojlanishining poydevorini tashkil etadi.

Matematik o'yinlar o'quv faoliyatiga tayyorlovchi vosita sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi:

- bolalarda mantiqiy tafakkur va diqqatni jamlashni rivojlantiradi;
- son-sanoq, o'lchov, shakl, rang tushunchalarini mustahkamlaydi;
- o'quv faoliyatiga ijobiy motivatsiya shakllantiradi;
- mustaqil fikrlashni rag'batlantiradi.

Matematik o'yinlar yordamida bola "miqdor", "katta-kichik", "uzun-qisqa", "yuqorida-pastda" kabi tushunchalarni tabiiy ravishda o'zlashtiradi.

Asqarova D.Q. ta'kidlaganidek, matematika bolalarda:

- fikrlash madaniyatini, diqqatni, xotirani, tafakkurni rivojlantiradi;
- mantiqiy mushohada yuritish qobiliyatini oshiradi;
- o'qish, yozish va mehnatga tayyorlanish jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuning uchun matematik mashg'ulotlar har kuni o'yin, kuzatish, suhbat va amaliy mashqlar orqali olib borilishi lozim.

Elementar matematik tasavvurlar — bu bolalarda atrof-muhitdagi predmet va hodisalarning miqdoriy, shakliy, fazoviy hamda vaqt jihatlariga oid bilim va ko'nikmalar majmuidir. Bu tasavvurlar bolada: predmetlarni solishtirish, tartiblash, guruhlash malakasini; mantiqiy tahlil va umumlashtirish qobiliyatini; matematik tilda fikrlashni; aniqlik va tartibga intilishni shakllantiradi.

Maktabgacha yoshda o'zlashtirilgan matematik tushunchalar bolaning kelajakdagi o'quv faoliyati uchun poydevor vazifasini bajaradi. X.Yo.Najmiddinova qayd etadi: “Bola maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun u sanash, taqqoslash, fazoda mo'ljal olish, vaqtni idrok etish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur.” Shuningdek, Bikbayeva va hammualliflar tomonidan ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar shuni ko'rsatadiki, elementar matematik bilimlar orqali bola tafakkur mustaqilligini rivojlantiradi, o'z fikrini asoslashga o'rganadi va ijtimoiy hayotda zarur bo'lgan mantiqiy xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Pedagogik amaliyotda quyidagi metodlar yuqori samara beradi:

- Didaktik o'yinlar: “Sanaymiz”, “Top va joylashtir”, “Shaklni tanib ol” kabi o'yinlar orqali bolalarda matematik fikrlash uyg'onadi;

- Ko'rgazmali va amaliy metodlar: predmetlar bilan bevosita ishlash, solishtirish, o'lchash, guruhlash;- Suhbat va kuzatish: kundalik hayotdagi matematik holatlarni tahlil qilish;

- Innovatsion texnologiyalar: interfaol mashg'ulotlar, raqamli ko'rgazmalar va interaktiv o'yin dasturlari. Najmiddinova bu jarayonda pedagogning shaxsiy kuzatuvchanligi, nutq boyligi va bola fikrini to'g'ri yo'naltira olish qobiliyatini muhim deb biladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish — bu bolaning kelajakdagi aqliy va bilish rivojlanishining poydevori hisoblanadi. Bolalarda matematik tushunchalarning shakllanganlik darajasi ularning maktabga tayyorgarligi, tafakkur darajasi va o'quv motivatsiyasini belgilaydi. Shunday ekan, maktabgacha ta'lim

tashkilotlarida matematika mashg'ulotlarini o'yin, tajriba va muloqot asosida tashkil etish pedagog oldidagi eng muhim vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bikbayeva N.U., Ibrohimova Z.I., Qosimova X.I., Asqarova D.Q. "Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi." – Toshkent: 2022.
2. Najmiddinova X.Yo. "Matematik tasavvurlarni shakllantirish." Oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim agentligi. "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari." – Toshkent, 2021.
4. Maktabgacha ta'limda matematik o'yinlarni tashkil etish: o'quv-uslubiy qo'llanma (Mardonov E. M. va boshq., 2018) —

